

TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA BOSHQARUV QARORLARI

Maylibayeva Ozoda Turg'unovna

*Maxsus fan o'qituvchisi, Jizzax shahar 2-son texnikumi, O'zbekiston respublikasi,
Jizzax viloyati ozodamaylibayeva8@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limda menejment qarorlarining o'rni va roli, boshqaruv qarorlari va ularga qo'yiladigan talabalar, boshqaruv usullari haqida tushuncha berilgan. Ta'lim mamlakat iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotining poydevori bo'lgani uchun har doim diqqat markazida ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishda yangi tamoyillarga asoslanish, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillarning o'zgarishi ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketish muammolarni ham yechimini topishga qaratilgan chora va tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo'lmoqda. Bu holatda birinchi navbatda, bolalar, so'ngra esa kattalar ijtimoiy yordamga muhtojdirlar. Bunday sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy muammolari bilan bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qiluvchi, uning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassis sifatida ijtimoiy pedagogga talab paydo bo'ldi.

Tayanch so'zlar: ta'lim menejmenti, iqtisodiy boshqaruv, ish samaradorligi, samarali boshqaruv, kooperatsiya, ongli rejali boshqarish, bozor iqtisodiyoti, ta'limni ongli boshqarish.

Abstract: This article provides an understanding of the place and role of management decisions in education, management decisions and the students they subject to, and management methods. Since education is the foundation of the country's economic and spiritual development, it is always in the spotlight to base social structures on new principles, the laws of the market economy, changes in ideological and moral principles, and the development of measures and events aimed at solving the problems of unemployment, material deprivation, child neglect, and family separation. In this case, children first, and then adults, need social support. In such circumstances, there has been a demand for a social pedagogue as a specialist who solves pedagogical issues related to the social problems of society and assists individuals in the process of their socialization.

Key words: educational management, economic management, work efficiency, effective management, cooperation, conscious planned management, market economy, conscious management of education.

Аннотация: В данной статье рассматривается место и роль управленческих решений в образовании, роль управленческих решений в отношении учащихся, которым они адресованы, а также методы управления. Поскольку образование является основой экономического и духовного развития страны, всегда актуальной задачей является построение социальных структур на новых принципах, законах рыночной экономики, изменениях идеологических и моральных принципов, а также разработка мер и мероприятий, направленных на

решение проблем безработицы, материальной нищеты, пренебрежения детьми и разлучения семей. В этом случае социальная поддержка необходима сначала детям, а затем и взрослым. В таких обстоятельствах возникла потребность в социальном педагоге как специалисте, решающем педагогические вопросы, связанные с социальными проблемами общества, и помогающем людям в процессе их социализации.

Ключевые слова: *управление образованием, экономическое управление, эффективность труда, эффективное управление, сотрудничество, осознанное плановое управление, рыночная экономика, осознанное управление образованием.*

Ta'lim menejmentining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichiga bir nazar tashlasak qadim tarixga egadir, ammo boshqaruv nazariyasi faqat XX-asr boshlarida rivojlana boshladi.

"Management" inglizcha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil qilish, rahbarlik qilish ma'nosida tarjima qilinadi. Umumiy rejada menejment boshqaruvni bildiradi, ya'ni u yoki bu faoliyat turini (tashkil etishni va rahbarlik qilishni) iqtisodiy, moliyaviy va boshqa inson hayotidagi ishbilarmonlik sohasini tashkil qilish va boshqarishni bildiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarda XX-asrning boshlarida ilmiy boshqaruv maktablari evolyutsiyasi boshlangan qulay sharoitlar yuzaga keldi. Demokratik mamlakatda ulkan mehnat bozori paydo bo'ldi. Ta'limning mavjudligi ko'plab aqlli odamlarga fazilatlarini namoyon etishga yordam berdi. Rahbarlikning yangi usullari talab qilindi. 1911 yilda Frederik Teylorning "Printsiplar" kitobi, Bu yangi fan - etakchilik sohasida tadqiqotlar uchun asos yaratdi.

Guruh ta'sirining odamlarning mehnatga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi mumkinligini isbotladi. Menejer turli sohalar bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi va amalda tasdiqlangan usullarni qo'llashi kerak. Maktab yirik sanoat ishlab chiqarishida hamma joyda paydo bo'ladigan bir qator muhim boshqaruv muammolarini hal qildi. Menejmentda eng asosiy vazifa - bu odamlar bilan ishlashdir. Menejment haqidagi keltirilgan tavsiflar shundan dalolat beradiki, u boshqaruv ma'nosini bildiradi turib, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodi boshqaruvdan tubdan farq qiladi.

Bu farqlar quyidagicha: Birinchi farq - bu bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lib, ma'muriy buyruqbozlik xo'jalikni reja asosida olib borish tizimi emasdir. Ikkinchi farq - birinchi farqdan kelib chiqadiki, ya'ni taraqqiy topgan davlatlarda menejment iqtisodiy boshqaruv usuli hisoblanadi. Uchinchi farq - menejmentni sotsialistik tizim boshqaruvidan farqini oxirgi to'rtta tavsifni birlashtirish asosida aniqlash mumkin. Uni "menejment - bu samarali boshqaruv fani va san'ati"dir deyish mumkin.

Bunday boshqaruv bu kabi mehnat bilan shug'ullanuvchilarning yuqori malakasi, ya'ni menejerlar hisobiga, ularning bilimdonligi, faol ijodiy ishi, tashabbuskorligi, fikr yuritishining egiluvchanligi, taktik va strategik masalalarni echishdagi qobiliyati, odamlar bilan bevosita ishlay olishi hisobiga amalga oshadi.

Oksford izohli lug'atida menejment tavsifi quyidagi oddiy so'z bilan ifodalangan.

Unda "Menejment - bu ma'muriy ishni bajarishdagi alohida qobiliyat va bilimdonlikdir", - deyilgan. Ta'limni boshqarish qonuniyatlari boshqaruv jarayonida turli elementlar va hodisalarning ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan, takrorlanuvchi o'zaro aloqalarini aks ettiradi. Ular umumiy va xususiylarga bo'linadi. Umumiy qonuniyatlari boshqaruvning barcha tizimlariga xos bo'lsa, xususiylari ayrim ta'lim tashkilotlari va muassasalarining amal qilishi bilan bog'liq. Quyidagilarni boshqaruvning umumiy qonuniyatlari sirasiga kiritish mumkin: ustuvor samaradorlik va ongli rejali boshqarish; boshqaradigan va boshqariladigan tizimlarning, boshqarish sub'ekti va ob'ektining o'zaro munosabati, boshqaruvda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi jarayonlarini kuchaytirish. Ushbu qonuniyatlarni ko'rib chiqamiz. Ta'limni ongli boshqarishning ustuvor samaradorligi qonuniydir, chunki unda kechayotgan jarayonlarni rejali boshqarish tizimi amalda ushbu jarayonlarni beixtiyor tartibga soladigan boshqarish tizimlaridan samaraliroqdir. Hozirgi ta'limda boshqarishning barcha darajalarida dasturiy-maqсадli yondashuv, tizimli yondashuv va tahlil keng qo'llanilayotganligi buning dalilidir.

Tashkilotdagi menejment tizimini tahlil qilish, agar rahbariyat samarali ishlashga intilsa, har qanday tashkilot uchun zarurdir. Sifat menejmenti tizimining samaradorligi, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri tashkiliy boshqaruv tuzilmalarining samarali faoliyatiga bog'liq.

Tashkilotda menejment sifati qanchalik yuqori bo'lsa, barcha boshqaruvning tuzilishi har qanday ichki va tashqi sharoitlarga mos kelishi kerak. Menejment tizimini tahlil qilayotganda, boshqaruv tuzilmalari faoliyati samaradorligi korxona rahbariyati ta'minlaydigan bir qator omillarga bog'liqligini yodda tutish kerak. Tashkilotda menejment tizimini tahlil qilishda umumiy maqsadlarga erishish uchun kompaniyaning barcha funktsional bo'linmalarining o'zaro bog'liqligi hisobga olinadi.

Tashkilotdagi menejment tizimini tahlil qilish, qo'shimcha ravishda, ish samaradorligini to'g'ri baholashga imkon beradi. Ushbu baholash amaldagi boshqaruv modelining progressivligi va ratsionallik darajasini aniqlashga imkon beradigan har qanday rejalashtirilgan va loyihaviy yechimlarini ishlab chiqishning eng muhim elementi sifatida taqdim etiladi va strukturaning eng maqbul variantini yoki, misol uchun, uni takomillashtirish usulini tanlash uchun amalga oshiriladi.

Umuman olganda, tashkilotda sifat menejmenti tizimi va boshqaruv tuzilmasini ishlab chiqish, shuningdek, turli bo'linmalar to'g'risidagi qoidalarni tuzish va ushbu bo'linmalar o'rtasida vazifalarni taqsimlash juda qiyin vazifa emas, biroq, bu erda shuni esda tutish kerakki, har qanday korxona shaxsiy javobgarlik va majburiyatlarni aniq taqsimlamagan taqdirda maksimal darajada samarali ishlay olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fatxutdinov R.A. – " Menejment", - Infra- M.

2. Kozlovskiy V.V. – “Основы менеджмента”

3. Deming E. – “Выход из кризиса” (sifatni boshqarish va qarorlar qabul qilish).